

## GLOBALASHUV JARAYONLARIDA TOLERANTLIKKA NAZAR

*To'rayev Ozod Uyg'un o'g'li*

*Turon universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

*Qulmurodova Ruxshona Shamsiddinova*

*Turon universiteti Psixologiya 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda global masalalardan hisoblanayotgan diniy bag'rikenglik masalasi, mazmun mohiyati, turli fanlar doirasida bag'rikenglik ayniqsa diniy bag'rikenglik tushunchasining talqinini ochib berishga qaratilgan. Shuningdek ushbu maqolada asosiy e'tibor diniy bag'rikenglik tushunchasining sof psixologik xususiyatlarini ochib berish va diniy bag'rikenglik tushunchasining psixologik mexanizmlarini ko'rsatib berishga harakat qilingan. Diniy bag'rikenglik fenomeniga olimlarning psixologik qarashlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Diniy bag'rikenglik, tolerantlik, chidamlilik, bardoshlilik, totuvlik, sezuvchanlik, men va sen, millatlararo totuvlik, emotsional-hissiy, hissiy-ratsional, hamkorlik, ekzistensial, ochiqlik, bag'rikenglik, hamjihatlik.

Bugun biz shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida yashayapmiz. Har bir davlat jahonda o'z so'ziga, o'z o'rniga ega bo'lish uchun harakat qilmoqda. O'zbekiston ham mustaqillikka erishganidan so'ng shiddat bilan rivojlanib, bugungi kunda dunyoda yetakchi davlatlar qatorida bo'lish uchun o'z yo'lidan bormoqda. Bugun yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar ham buning yorqin namunasidir. Jamiyat barqarorligini ta'minlash va unda istiqomad qilayotgan turli millat vakillarining manfaatlarini himoya qilish ko'p millatli O'zbekiston siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir. Tolerantlik hodisasi esa ko'p millatli va ko'p konfessiyali o'zbek jamiyatidagi o'ta nozik masalalardan biridir. Tolerantlik - o'zgalarning xulq-atvori, e'tiqodlari va

qadriyatlarini erkin qabul qilish imkonini beruvchi ruhiy tayyorgarlik; o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik va bag'rikenglik; shaxsiy qarash va nuqtayi-nazarlardan farqlanuvchi fikr va mulohazalariga bo'lgan munosabatdir [1, 116-b.].

Diniy bag'rikenglik tushunchasi va unga bag'ishlangan nazariyalar turlicha bo'lib, ular ijtimoiy fanlar tarixining barcha bosqichlarida ham muhim ahamiyat kasb etgan. XX asrning oxirlariga kelib mazkur masala yanada aktuallashtirish boshladi. Chunki bu davrda millatlararo munosabatlar, dinlararo o'zaro aloqalar va kelishmovchiliklar, jamiyatlar o'rtasida integratsiya jarayonining mohiyati tubdan o'zgardi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan ham mazkur masalalar alohida dolzarblilikni kasb etadi.

Dinlararo bag'rikenglik-bu xilma-xil din va mazhab egalarining bir-birining e'tiqodini o'zaro hurmat qilib, tushunib, yagona zamin, yagona vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashidir [2, 48-b.]. Bugungi kunda dinlararo bag'rikenglikka erishish uchun ular o'rtasida madaniy muloqot, ezgulik yo'lidagi hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, insoniyat boshiga tushgan xatarlar — yadro urushi xavfi, ekologik halokatlar, terrorchilik va diniy ekstremizm kabi ofat-balolar dinlarni ezgulik, barcha insonlar uchun yagona bo'lgan sayyoramizni saqlab qolish yo'lida birlashish va hamkorlik qilishga undamoqda. Shu o'rinda bag'rikenglik tushunchasini falsafa, psixologiya va pedagogika kabi qator fanlar doirasida, ko'p hollarda "Millatlararo muloqot madaniyati" atamasi sifatida tahlil etilganini ta'kidlash joiz.

Psixologiyada bag'rikenglik (tolerantlik) fenomen sifatida nisbatan yaqin vaqtlardan beri o'rganilmoqda. A.G.Asmolov va G.U.Soldatova ishlarida tolerantlik - tenglikni hurmat qilish va tan olish, ustunlik qilish hamda kuch ishlatishdan voz kechish, insoniy ma'daniyat, me'yorlar, e'tiqodlarning ko'p o'lchamliligi va turli-tumanligini tan olish, bu turli-tumanlikni bir turlilikka yoki

qandaydir nuqtayi-nazarning ustunlik qilishiga keltirishdan voz kechishda aksini topgan.

A.V.Petrovskiy, A.V.Zimbuli, Y.A.Ishenko, V.M.Zolotuxin, S.Y.Golovin, A.G.Asmolov va G.U.Soldatovalar nuqtayi-nazaridan, chidamlilik tolerantlikning tarkibiy qismi deb hisoblanadi [3, 5-7-b.]. A.A.Rean ham “Chidamlilik” va “tolerantlik” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqadi Uning fikricha, tolerantlik psixofiziologik tushunchadir va u biror bir nomuvofiqlikning omili ta’siriga sezuvchanlikning susayishi natijasida unga ta’sirlanishning pasayishini bildiradi. A.A.Rean fikriga ko‘ra, ham”chidamlilik” tushunchasi tolerantlikni o‘z ichiga oladi va yanada umumiyroq hisoblanadi. Chidamlilik shaxsning turli fikrlarga munosabat, insonlar va voqealarni baholashda oldindan bir fikrga ega bo‘lmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyat, deb tushuniladi. Olim bag‘rikenglikning umumiy hodisa sifatidagi strukturasi toqatning turli mexanizmlari asosida bir-biri bilan bog‘langan ikki turini ajratib ko‘rsatadi. Bular:

1. Shaxsning sensual chidamliligi. Uning atrof-muhit ta’siriga bardoshlilik bilan bog‘liq va sezuvchanlik pasayishi hisobiga qandaydir salbiy omillarga ta’sirchanlikning kamayishi bilan bog‘liq, bu “chidamlilik-bag‘ritoshlik, chidamlilik-devor”.

2. Shaxsning dispozitsion chidamliligi. Uning atrof-muhitga chidamliligi reaksiyasining tayyorgarligi, moyilligi bilan sifatlanadi. Buning orasida shaxsning muayyan ustanovkasi, voqelikka nisbatan munosabatlarining yig‘indisi turadi, yani “chidamlilik-pozisiya”, “chidamlilik-ustanovka”, “chidamlilik-dunyoqarash” [3, 10-17-b.].

A.V.Petrovskiy va V.V.Yupchuklarning fikricha bag‘rikenlikni frustratorlar yoki stressorlar mavjud bo‘lgan psixologik barqarorlik sifatida ko‘rish mumkin, qachonki, u takrorlanadigan ta’sirga sezuvchanlikning pasayishi natijasida shakllangan bo‘lsa, albatta. E.V.Magomedovanning fikricha, bag‘rikenglik inson ongining ikki darjasi: ratsional-mantiqiy va emotsional-hissiy asosida ko‘rib chiqish mumkin. Boshqa kishiga chidamli bo‘lish, uni tushunish

uchun nafaqat ana shunday xatti-harakat qilish haqida bilim talab qilinadi, balki bu xatti-harakatni his qilish taqozo etiladi. Shu nuqtayi-nazardan qaraganda, bag‘rikenlik - bu har doim shaxsiy-hissiy xatti- harakatdir. Insonning shunday ruhiy holatini V.S.Solovev ma’naviyat deb ataydi. Bunday taxmin bag‘rikenglikning emotsional-hissiy darajada axloq bilan chambarchas aloqadasi haqidagi xulosalar bilan ta’kidlanadi. Bundan tashqari, bag‘rikenglik emotsional-hissiy darajada tarixiy hisoblanmaydi, chunki u ko‘pgina xalqlarning madaniy-tarixiy an‘analarida mustahkamlab qo‘yilgan. Haqiqiy bag‘rikenglik kishining ichki ruhiy erkinligi yordamida ta’minlanadi va u har doim ham erkinlik bilan muvofiq kelavermaydi [4, 38-b.].

Bag‘rikenglik fenomenini P.F.Komogorov uch xil pozitsiyadan turib tahlil qiladi. Birinchidan, “Men va Sen” ko‘rinishidagi antropologik muammo kontekstida, ikkinchidan, qadriyatlarning muammolarini aksiologik jihatdan, uchunchidan, paraksiologiya, jumladan, muloqot faoliyati jihatidan. Dastlab “Men va Sen” mavzusi nemis mutafakkiri L.Feyerbax tomonidan ishlab chiqilgan edi. “Alohida inson deb takidlaydi u, qandaydir ajralib turuvchi bo‘lib, o‘zida insoniylikning axloqiylik va fikrlovchilik mohiyatini aks ettirmaydi. Insoniy mohiyat faqatgina muloqotda, insonni inson bilan birligida bo‘lib, u faqatgina “Men va Sen” farqining voqeligiga tayanishda namoyon bo‘ladi”. Bunda L.Feyerbax insoniy mohiyat kishiga tabiatdan unga tug‘ma qilib berilmaydi, lekin odam naturalizm pozitsiyasidan e’tirof etiladi, deb hisoblaydi. M.Buber L.Feyerbaxdan farqli o‘laroq “Men va Sen” munosabatlariga sakral (mudaddas) bag‘ishlaydi. Uning fikricha, bag‘rikenglik insonlar bir-birlari bilan muloqot qiladigan kichik jamoalar va guruhlarda kechadigan hayotlari bilan bog‘liq bo‘ladi [5, 98-b.]. Shu nuqtayinazardan qaraganda, bag‘rikeng inson o‘zining betakrorligini “Men va Sen” munosabatlarini anglash orqali qo‘lga kiritadi, yani boshqa kishilar bilan o‘zaro muloqotga kirishishi tufayli, intolerant shaxs o‘zini boshqalardan ajratadi.

Psixolog olimlar bag‘rikenglikning qadriyatlarga asoslangan tabiatini ta’kidlab, uni inson axloqi rivoji bilan bog‘laydilar. Shunday yondashuvni

S.M.Shalyutin asarlarida ko‘rishimiz mumkin. U bag‘rikenglikni asrdan- asrga o‘tib kelayotgan umuminsoniy qadriyat sifatida tadqiq etadi. Bixeviorizmga bag‘rikenglik avvalambor insonning alohida bir xulq-atvori sifatida ko‘riladi. Shuningdek, kognitiv yondashuvda bag‘rikenglik asosini bilim va ratsional dalillar tashkil etadi. Ekzistional-gumanitar nuqtayi-nazardan qaraganda, to‘laqonli va puxta bag‘rikenglik bevosita anglangan, fahmlangan va ma’suliyatli ijtimoiy hodisadir. S.L.Bratchenkoning fikricha, bunday bag‘rikenglik avtomatizm va harakatlarning oddiy qolip-andozalariga olib kelmaydi, bu qadriyat va hayotiy potzisiya bo‘lib, ularni konkret vaziyatda amalga oshirish ma’lum bir ma’no kasb etadi va bag‘rikenglik subyektidan mazkur ma’noni va masuliyatli qarorni izlash talab qilinadi [6, 201-b.].

Bag‘rikenlik bo‘yicha horijiy va mahalliy ishlar shundan dalolat berayaptiki, bag‘rikenglik tushunchasiga umum-ma’noli ta’rif berish mushkul. Shuning uchun bu masalada diversifikatsion yondashuvga rioya qilinmoqda. Mazkur yondashuvni muhokama qila turib, I.Pettay bag‘rikenglikning ma’lum bir rivojlanish dinamikasi haqida gapiradi va bag‘rikenglik shakllanishining bir necha davrlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qiladi. Binobarin, bag‘rikenlikning yuksakroq darajasi doim afzalroq, deyish to‘g‘ri emas [7, 18-b.]. M.Uolserning bag‘rikenglik chegaralari haqidagi fikrlariga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlash lozimki, bag‘rikenglikning sharoitlarga mos bo‘lmagan haddan ziyod ko‘tarilishi insonning qarshilik ko‘rsata olishi va unda nochorlikning o‘sishiga , uni differensiallashgan ta’sirchanligining pasayish hamda individualligiga xavf-xatarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Alohida olingan individ-shaxs darajasidagi hodisa sifatida diniy bag‘rikenglikni modellashtirish varianti I.B.Grinspun asarlarida qo‘llanilgan [8, 245-b.]. Bu yerda bag‘rikenglik modelining “ochiqlik-yopiqlik” va “barqarorlik-yemirilish” kabi ikki parametrik ko‘rsatilgan. Dinlararo bag‘rikenglik mohiyatiga bunday yondashuvga asoslangan tahlil boshqa xalqlarning diniy steriotiplari va ular haqidagi bilimlar mazmunini aniqlash bilan birga, etnik o‘zlikni anglashning strukturaviy bo‘g‘inlari xususiyatlarini, diniy tafakkur dialektikasi va nazoratini,

kognitiv usullarini, ekzistensial makon kengayishining qadriyatlarini aniqlashga ham yoʻnaltirilgan boʻladi.

Bagʻrikenglikni oʻrganishning ikkinchi toifa manbalari psixologik faoliyat bilan bogʻliq tadqiqotlardir. Psixologik nuqtayi-nazardan olib qaralganda, bagʻrikenglik bu, eng avvalo, tarbiya vazifalarini hal etish vositasi, pedagog shaxsi va faoliyatiga boʻlgan talabdir. Diniy bagʻrikenglik bu yerda pedagog faoliyatining tamoyili boʻlib, turli din vakillari oʻrtasidagi xilma-xillikni hurmat qilish, boshqalarning “oʻzgacha” boʻlishga haqli ekanini tan olish, ularni oʻziga mos yoʻnalishda oʻzgartirishga intilishdan voz kechish singari shartlarni amalga oshirishga hizmat qiladi. Qator ilmiy ishlarda psixologlar tomonidan diniy bagʻrikenglik pozitsiyasini egallashning texnologiyalari keltiriladi. Diagnostika, guruh darajasida tushuntirish ishlari hamda individual psixologik konsultatsiyalar, psixologik trening turkumi kabilar shular jumlasidandir. Biroq shuni ham takidlab oʻtish lozim, hozircha psixologlar diniy bagʻrikenglik rivojlanishining u yoki bu modeli samaradorligini oʻrginishga qaratilgan ishlari juda kamchilikni tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, bugun dinlararo bagʻrikenglik millatlararo totuvlik-tinchligimizning garoviga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambeliyasi 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish taklifini kiritdi [9]. Bundan koʻrinib turibdiki diniy bagʻrikenglik jamiyat barqarorligini taʼminlashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Koʻrsatilganlardan kelib chiqqan holda taʼkidlash mumkinki, diniy bagʻrikenglik bu insonni turli muammoviy va inqirozli vaziyatlarda ruhiy toliqqanlikni tiklashni taʼminlash uchun tashqi muhit bilan faol munosabatga kirisha olishini, muvaffaqiyatli moslashuvini, insonni oʻzi va atrofdagilari bilan axloqiy meʼyor namunasida xayrihoh munosabatda boʻlishini taʼminlovchi integral tavsif hisoblanadi.

Bugun har bir inson, jamiyat oʻzaro munosabatlarini xalqlarning turli-tuman urf-odatlarini, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bagʻrikenlik asosiga qurishi zarur. Zero, tinch-totuvlik, bagʻrikenglik taraqqiyot garovidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Ijtimoiy psixologiya. N.Islomova, D.Abdullayeva.-Toshkent 2015.
2. “Islom-tinchlik va bag‘rikenglik dinidir” - maqola - 2017. Toshkent islom instituti.
3. Асмолов А.Г.Толерантность от утопии реальности./На пути к толерантному сознанию.Москва. 2000.
4. Асмолов А.Г.Толерантность от утопии реальности./На пути к толерантному сознанию.-Москва: 2000.
5. Ананьев Б.Г. сихофизиологии студенческого возраста//Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы / Под Род. Б. Г. Ананьева и Н.В. Кузьминой. Л. 1974.Вып.2.
6. Комогоров П.Ф. Формирование толерантности в межличностных отношениях студентов вуза Афтореф...канд.пед .наук. Курган: 2000.
7. Братченко С.Л. Межличностный диалог и его основные атрибуты.//Психология с человеческим лицом:гуманистическая перспектива в постсоветской психологии. –Москва: 1997.
8. Петтай И. Взаимная толерантность эстонцев и не эстонцев.//Интеграф) эстонского общества. Мониторинг.–Таллин: 2000.
9. Гриншпун И.Б. Понятие и содержательные характеристики толерантности// Толерантное сознание и формирование толерантных отношений. М-Воронеж, 2002.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambeliyasining 72-sessiyasidagi nutqi .//<https://www.lex.uz>.